

Mustafayev Baxtiyor

Buxoro davlat universiteti
musiqi ijrochiligi va madaniyat
kafedrasi professori,
pedagogika fanlari nomzodi

MAKTAB MUSIQIY-PEDAGOGIK JARAYONIDA O'QITUVCHINING KASBIY MAHORATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabda musiqiy-pedagogik jarayonni tashkil etish va uni pedagogik boshqarishda o'qituvchining kasbiy mahorati, milliy o'quv dasturi asosida ta'limning mazmun-mohiyati, musiqiy ta'lim sifatini yanada oshirishda o'qituvchining o'ziga xos o'rni va nufuzi xususida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy mahorat, kompetensiya, nazariy bilim, musiqa tarbiyasi, musiqiy-pedagogik jarayon, samarali boshqaruv, o'qituvchi faoliyati, ijodiy yondashuv, musiqiy faoliyat, interfaol ta'lim, pedagogik malaka, amaliy ko'nikma.

PROFESSIONAL SKILLS OF THE TEACHER IN THE MUSICAL AND PEDAGOGICAL PROCESS OF THE SCHOOL

Annotation. This article discusses the professional skills of the teacher in the organization of the musical-pedagogical process and its pedagogical management at the school, the content and nature of education on the basis of the national curriculum, the specific role and prestige of the teacher in further improving the quality of musical education.

Keywords: professional skills, competence, theoretical knowledge, musical education, musical-pedagogical process, effective management, teacher activity, creative approach, musical activity, interactive education, pedagogical skills, practical skills.

ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ МАСТЕРСТВО ПЕДАГОГА В ШКОЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы профессионального мастерства учителя в организации музыкально-педагогического процесса в школе и его педагогического управления, сущности образования на основе национальной учебной программы, конкретной роли и авторитета учителя в дальнейшем повышении качества музыкального образования.

Ключевые слова: профессионализм, компетентность, теоретические знания, музыкальное воспитание, музыкально-педагогический процесс, эффективное управление, деятельность учителя, творческий подход, музыкальная деятельность, интерактивное обучение, педагогическая компетентность, практические навыки.

Respublikamizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar yoshlarimizni ilm-fan, san'at, madaniyat, sohalariga qiziqishlarini yanada orttirib, ularning o'z musiqiy-badiiy salohiyatini yanada rivojlantirishga katta imkoniyat yaratmoqda. Maktabda musiqiy ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, albatta musiqa o'qituvchisining kasbiy mahoratini takomillashtirishni taqozo etadi.

Muhtaram Prezidentimizning 2024-yil 15-noyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 391-sonli Qarorida o'quvchi-yoshlarni madaniyat va san'atga keng jalb qilish, ular bilan tizimli ishlash, madaniyat hamda san'at muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish borasida qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjudligi belgilab berildi [1].

O'qituvchini tayyorlash oliy o'quv yurtidagi butun ta'lim-tarbiya ishlarining majmui vositasi bilan

amalgaga oshiriladi. O'quv jarayoni va darsdan tashqari ish uning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Muntazam yondashuv bo'lajak mutaxassislarda o'qituvchi kasbi uchun zaruriy bilim, mahorat ko'nikmalarni hamda shaxsiy xislatlarni rivojlantirish uchun oliy ta'limning barcha imkoniyatlaridan foydalanishni ta'minlaydi. Shu vazifani muvaffaqiyatli hal etishini ta'minlaydigan vositalar orasida musiqa – pedagogikasi sohasi uchun kasbiy mahorat asoslarini tarkib toptirish katta ahamiyatga egadir. Bu vosita bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlash tizimining tarkibiy qismidir.

Nazariy bilim, tayyorgarlik ularning bilim doirasini kengaytirish uchun qulay sharoit yaratadi, bo'lajak musiqa o'qituvchisining shaxsini shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi-yoshlarda pedagog mehnati ko'nikmalarini, mahoratini, bu mehnatga ijodiy yondashish kayfiyatini rivojlantirishga, o'zining ruhiy holatini boshqara bilish, boshqa insonning hissiy holatini tushunish va anglash kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga ko'maklashadi. Zero, "Pedagog kadrlarning kasbiy mahorati, sifat va saviyasini uzluksiz yuksaltirish oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim ustuvor vazifalardan biridir [2].

Bugun musiqa o'qituvchisining ma'naviy olami, mafkuraviy e'tiqodi yuksak axloqiy xususiyatlarga egaligi va musiqiy ta'lim jarayoni, uning o'ziga xos jihatlari, tarbiyaviy imkoniyatlarini puxta bilishi hamda musiqiy faoliyatlarni samarali pedagogik boshqara olishi katta ahamiyatga ega. Buning uchun, musiqa pedagogi jamiyatning fuqarosi sifatida o'z mavqe-maqomi va faol o'rniga ega bo'lishi, pedagogik jamoasida hurmat-e'tibor qozonishi, ta'lim berayotgan fanidan chuqur bilimli hamda kasbiy kompetentli bo'lishi, talab-qoidalarga amal qilishi, me'yor va qonunlarni xurmat qilishi lozim. Zero, "Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog-xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi." [3].

Maktab musiqa o'qituvchisi - bu o'ziga xos ijodiy kasb sohibi bo'lib, o'zining musiqiy-ijrochilik va pedagogik mahoratiga ega bo'lishi bilan birga o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun musiqiy faoliyatlarni metodik jihatdan to'g'ri, mazmunli tashkil etishi va pedagogik boshqara olishi kerak. Zero, o'quvchilarning musiqiy ta'lim darajasi o'qituvchining pedagogik malaka sifatiga, kasbiy kompetentligiga bog'liq bo'ladi.

"Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, talablaridan kelib chiqib, bugungi kunda musiqiy-pedagogik faoliyatning ijtimoiy hodisa sifatidagi maqsadini quyidagilarda namoyon bo'lishini kuzatish mumkin:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, uzluksiz bilim olishga tayyorlash, fanlarning ilmiy-nazariy asoslarini puxta egallashga yo'naltirish;

- har bir o'quvchining o'ziga xosligi, qiziqishi va imkoniyatlari, individualligini inobatga olib, ularni musiqiy-pedagogik faoliyatga jalb etish;

- o'qitish va tarbiyalash jarayonida o'quvchilarning mustaqilligi, tashabbuskorligi, erkin fikr yuritishni to'la yo'lga qo'yish;

- o'qitishda ta'lim va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda ўқувчиларда musiqiy dunyoqarash, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash;

- o'quvchi-yoshlarning musiqiy-nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, fanga oid kompetensiyalarni o'zlashtirishini nazorat qilish, baholash hamda tahlil qilish;

- mashg'ulotlarda san'at fanlari va turlariaro integratsiyani yo'lga qo'yish, o'quvchilarning fanlarni o'zaro bog'liqlikda idrok etishga doir intilishi, qiziqishi hamda ehtiyojini tarbiyalash;

- musiqa mashg'ulotlarida ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan samarali foydalangan holda, mavzularning mantiqiy bog'liqligi, amaliy yo'nalishini kuchaytirishga erishish va h.k.

Bugungi kunda musiqa o'qituvchisida faqatgina pedagog iste'dod va qobiliyatning bo'lishi yetarli emas, balki u shuningdek pedagogik nazariyalar, ta'lim metodlari, texnologiyalari bo'yicha ham tegishli daraja va hajmda sifatli bilimga ega bo'lishi kerak. Bu esa nazariya bilan amaliyotni uzviy bog'liq holda o'zlashtirilishiga erishiladi.

Zamonaviy pedagogika ta'limi tizimining maqsadi o'qituvchining uzluksiz umumiy va kasb kamolotiga erishishini ta'minlashdan iborat, chunki umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa madaniyati fani o'qituvchisi oldiga, uning kasb malakasiga va shaxsiy xislat, fazilatlariga nisbatan yuksak talablarni ko'ymoqda.

O'quvchilarni axloqiy jihatdan pok, jismonan sog'lom va barkamol qilib, badiiy estetik didini kun sayin o'stirish, har taraflama mukammal rivojlangan ijrochi – sozanda qilib tarbiyalash har bir musiqa o'qituvchisining zimmasidagi eng mashaqqatli, ayni paytda sharaflı vazifadir.

Musiqiy-pedagogik jarayonda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li o'qituvchi tomonidan mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etishdir. Zero, pedagogika fani izohli lug'atida "Interfaol usullar o'quvchilarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'sirida dars jarayonini amalga

oshiradi. Interaktiv ingliz soʻzidan olingan boʻlib, “interact” yaʼni inter-oʻzaro, act-harakat, taʼsir, faollik maʼnolarini anglatishi taʼrif etilgan [4].

Umumiy oʻrta taʼlim tizimida “Milliy oʻquv dasturi”ning ishlab chiqilishi va bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi ahamiyatli masalalardan biridir. Unda musiqa madaniyati fanini oʻqitishning Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimida musiqa madaniyati fanini oʻqitishni rivojlantirish Konsepsiyasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilganligi bayon etilgan. Shuningdek, Konsepsiya umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida musiqa madaniyati fanini oʻqitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari belgilab berilgan.

Ushbu hujjatga asosan amaliy fanlar, jumladan musiqa madaniyati taʼlimida ham oʻquvchi-yoshlarga fanga oid-“Estetik madaniyat va ijodkorlik”, “Oʻzini-oʻzi rivojlantirish va asrash”, “Amaliy faoliyatni rivojlantirish” kabi kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini amalga oshirilmoqda.

Musiqa madaniyati fanini oʻqitishning oldiga esa oʻquv fani boʻyicha egallagan bilim, koʻnikma va malakalarni amaliyotda qoʻllash orqali oʻquvchilarda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni rivojlantirish asosida fikr doirasini kengaytirish, oʻzbek va jahon kompozitorlari asarlarini hamda turli musiqiy janrlarni bir-biridan farqlay olish, fanga doir tayanch va umumiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishning dolzarbligi yanada oshadi.

Xulosa shuki, rivojlanib borayotgan bugungi jamiyatimizda juda katta ijobiy oʻzgarishlar davrida oʻquvchilar aniq va tabiiy fanlar qatori sanʼat, jumladan musiqa madaniyati asoslarini chuqur oʻzlashtirishi, oʻzining iqtidorini namoyish qilishi, qobiliyatlarini oʻstirishga astoydil kirishadigan badiiy bilimlarga chanqoq, talabchan, ilgʻor maʼnaviy dunyoqarashga ega boʻlishi muhim. Ularni oʻqitish va tarbiyalashda ilgʻor ilmiy-uslubiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlar qatoriga kiritilganligi oʻrta taʼlim maktablari musiqa oʻqituvchilari kasbiy mahoratini yanada takomillashtirish masʼuliyatni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrda “Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida musiqa madaniyati fani oʻqitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan oʻqituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida PQ 391-sonli qarori// <https://lex.uz/search>.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi PF-4947–sonli Farmoni. // <https://www.lex.uz/docs/>

3. Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni.- Toshkent. 2020-yil. 23-sentabr. OʻRQ-637-son. – B. 25-26.

4. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lugʻat. – Toshkent. “Fan va texnologiya”, 2009-yil. – B. 188.

5. Milliy oʻquv dasturi. Musiqa madaniyati. – Toshkent. 2021.